



KORXONALARDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI

COMPLIANCE OF FINANCIAL REPORTING WITH INTERNATIONAL STANDARDS AND ECONOMIC EFFICIENCY IN ENTERPRISES

¹Jumaniyazov Inomjon
Turayevich, ²Abdullayev
Azizbek Olimjon o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
G-mail: inomjonscience@gmail.com, ²Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti talabasi, G-mail: azizbek3106@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur tadqiqot O'zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy etish jarayoni va uning moliyaviy hisobot sifati, shaffoflik hamda investitsion jozibadorlikka ta'sirini o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot 2019–2024-yillardagi joriy etilish dinamikasi va iqtisodiy samaradorlikni tahlil qilishga qaratildi. Sifatli yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy statistik ma'lumotlar tahlili asosida xalqaro standartlarning afzalliklari va muammolari aniqlashtirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, standartlar asosida hisobot beruvchi korxonalar soni, malakali buxgalter va auditorlar ulushi ortgan, moliyaviy axborot shaffofligi oshgan, investitsiyalar hajmi va kapital bozorlarida ishtirok etuvchi korxonalar soni ko'paygan. Shu bilan birga, ayrim korxonalarda qisqa muddatli moslashuv holatlari kuzatilgan. Tadqiqot xulosalari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari moliyaviy shaffoflikni oshirish va investor ishonchini mustahkamlashda muhim ekanini ko'rsatadi.

Eng. - This study examines the implementation of International Financial Reporting Standards (IFRS) in Uzbekistan and their impact on the quality, transparency, and investment attractiveness of financial reporting. The research focuses on the dynamics of IFRS adoption and its economic effectiveness during 2019–2024. Using a qualitative approach, along with an analysis of legal regulations and official statistical data, the study identifies the benefits and challenges of applying these standards. The results show an increase in the number of companies reporting under IFRS, a growing share of qualified accountants and auditors, improved financial transparency, higher investment inflows, and more companies participating in capital markets. At the same time, some firms experienced short-term adjustment issues. The findings indicate that IFRS implementation plays a key role in enhancing financial transparency and strengthening investor confidence in Uzbekistan.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ moliyaviy hisobot, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, MHXS, buxgalteriya hisobi, moliyaviy shaffoflik, investorlar ishonchi, investitsion jozibadorlik, kapital bozori, audit, iqtisodiy samaradorlik.

❖ financial reporting, international financial reporting standards, IFRS, accounting, financial transparency, investor confidence, investment attractiveness, capital market, audit, economic efficiency.

Kirish.

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish, moliya bozorlarining integratsiyalashuvi va investorlar tomonidan talab qilinadigan moliyaviy axborotning shaffofligi va solishtiriluvchanligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) dunyo miqyosida korxonalar faoliyatini baholash va moliyaviy holatini aniqlashning universal mexanizmi sifatida keng qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda MHXS 160 dan ortiq davlat va hududlarda joriy etilgan bo'lib, moliyaviy axborotlarning ishonchliligi, solishtiriluvchanligi va investitsion jozibadorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, MHXSga asoslangan moliyaviy hisobotlar korxonalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshiradi, manfaatdor tomonlar uchun qaror qabul qilish jarayonini yengillashtiradi va korporativ boshqaruv sifatini mustahkamlaydi. Shu bois, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham bu masala alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatda buxgalteriya hisobi sohasini tizimlashtirish, MHXSga o'tishni rag'batlantirish va tadbirkorlik subyektlarining ushbu standartlarni qo'llashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotlarning tashqi sifat nazorati tizimlarini takomillashtirish, buxgalterlar va auditorlar kasbining huquqiy maqomi va nufuzini mustahkamlash, ularning kasbiy odob-axloq talablariga rioya etishini ta'minlash va buxgalterlik hamda auditorlik xizmatlari sifatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Buxgalteriya hisobi va audit sohasini raqamlashtirish orqali

rivojlantirish esa mazkur jarayonlarning samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda nafaqat buxgalter, balki har bir rahbar xodim ham bank yoki korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda yuqori malakali, xalqaro amaliyotga tayangan buxgalter va auditorlarga tayanishi muhim ahamiyat kasb etadi. MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar rahbariyat uchun ishonchli axborot manbai bo'lib, iqtisodiy muammolarni samarali hal etish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi va shu jihatdan respublika iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda MHXSni joriy etish masalalari asosan normativ-huquqiy asoslar va metodologik yondashuvlar doirasida o'rganilgan. Biroq MHXSga moslashuvning korxonalar moliyaviy hisobotlari sifati va ularning amaliy samaradorligiga real ta'siri, xususan moliyaviy barqarorlik, boshqaruv qarorlari qabul qilish samaradorligi va manfaatdor tomonlar ishonchiga ta'siri yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan. Shuningdek, turli soha va mulk shaklidagi korxonalarda MHXSni qo'llash natijalari o'rtasidagi farqlar ham ilmiy izlanishlarda kam yoritilgan. Shu sababli, O'zbekiston korxonalarida moliyaviy hisobotlarning MHXSga moslashuvi va uning samaradorligini kompleks tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar xalqaro va mahalliy darajada dolzarb bo'lib, mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar mavjud tadqiqotlardagi bo'shliqni to'ldirishga hamda buxgalteriya hisobi va audit tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Mazkur adabiyotlar IFRS (Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari)ni joriy etish jarayoni, uning iqtisodiy va moliyaviy natijalari, shuningdek, O'zbekiston sharoitida

tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi. Tadqiqotlar IFRS qabul qilishning moliyaviy hisobotlar sifati, shaffoflik, investorlar ishonchi, iqtisodiy rivojlanish va mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyaga ta'sirini ko'rsatadi. A Sohibov [1] ilmiy tadqiqotlarida IFRSni joriy etishning foydalari va qiyinchiliklari tahlil qilinadi. Tadqiqot IFRSning moliyaviy hisobotlarni shaffof, xalqaro taqqoslanadigan va sifatli qilishdagi ahamiyatini ochib beradi, shuningdek, kadrlar malakasi yetishmasligi, texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi va moliyaviy xarajatlarning yuqoriligi kabi muammolarni ko'rsatadi. Tadqiqot natijalarida davlat siyosati, ta'lim tizimi va xalqaro hamkorlik orqali IFRSni samarali joriy etish zarurati ta'kidlanadi.

Botirov Feruzning maqolasi [2] O'zbekiston sharoitida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish bosqichlarini, xususan, Chorvoq turistik-rekreasion zonasi misolida tahlil qiladi. Tadqiqotda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va investorlar ishonchini oshirishda IFRSning roli yoritilgan. Shuningdek, moliyaviy nazoratni kuchaytirish, kadrlar tayyorlash va axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Dobilova Nigora maqolasida [3] MHXSni O'zbekistonda joriy etish jarayoni va uning huquqiy va amaliy bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, kadrlar salohiyati, raqamlashtirish va audit infratuzilmasi muhim omillar sifatida ko'rsatilib, MHXSni bosqichma-bosqich joriy etish orqali iqtisodiyotning shaffofligini oshirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish mumkinligi ta'kidlanadi.

Maxmasobirova Nigora va Saydaliyev Javohir maqolasi [4] O'zbekiston Prezidentining PQ-4611-son qarori doirasida MHXSni joriy etish siyosati va amaliy choralarini yoritadi. Tadqiqot kadrlar tayyorlash, xalqaro sertifikatlash tizimlarini (ACCA, DipIFR) joriy etish va oliy ta'lim

muassasalarida MHXS bo'yicha o'quv dasturlarini akkreditatsiyadan o'tkazishning ahamiyatini ko'rsatadi. Shuningdek, qaror moliyaviy shaffoflikni oshirish, iqtisodiy islohotlarni ilgari surish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Emin Yurekli [5] tomonidan tayyorlangan maqolada 1986–2020 yillarga oid 54 mamlakat ma'lumotlari tahlil qilinib, IFRS qabul qilishning mamlakat darajasidagi iqtisodiy va moliyaviy rivojlanishga ta'siri empirik tarzda ko'rsatilib, qisman yoki to'liq qabul qilish natijasida shaffoflik va iqtisodiy o'sishga bo'lgan ta'sir misollar bilan keltiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi O'zbekiston sharoitida IFRS (Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari)ni joriy etish va uning moliyaviy hisobotlar sifati, shaffoflik va investorlar ishonchiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot ikki asosiy savolga javob berishga mo'ljallangan edi: ma'lumotlar qanday to'plangan yoki yaratilgan va ular qanday tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy yondashuvi sifatli tahlilga asoslangan bo'lib, mavjud adabiyotlarni tizimli ko'rib chiqish va kontent tahlili orqali amalga oshirildi. Ushbu yondashuv tadqiqot muammosini kontekstual va holatga bog'liq tarzda chuqur tushunishga imkon berdi. Ma'lumotlar manbalari sifatida 2005–2022-yillarda nashr qilingan ilmiy maqolalar, hukumat qarorlari, xalqaro moliyaviy hisobotlar va moliyaviy institutlar tomonidan e'lon qilingan amaliy hisobotlar tanlandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mazkur bo'limda O'zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etish jarayonining o'sish dinamikasi va ushbu jarayonning iqtisodiy samaradorligi 2019–2024 yillar kesimida tahlil qilindi. Tahlil MHXS bo'yicha institutsional rivojlanish ko'rsatkichlari hamda investitsion va moliyaviy natijalar asosida amalga oshirildi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etayotgan korxonalar sonida barqaror o'sish kuzatildi. 2019-yilda 245 ta korxona MHXS asosida hisobot taqdim etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 810 taga yetdi. Bu davr

mobaynida umumiy o'sish 230 foizni tashkil etdi. MHXS bo'yicha sertifikatlangan buxgalterlar soni ham sezilarli darajada oshdi. 2019-yilda 420 nafar mutaxassis mavjud bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni 1 630 nafarga yetdi.

1-jadval

O'zbekistonda MHXS joriy etish ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasi (2019–2024) [6]

Ko'rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	O'zgarish (%)
MHXS bo'yicha hisobot taqdim etgan korxonalar soni	245	310	415	530	670	810	+230
MHXS bo'yicha sertifikatlangan buxgalterlar soni (ACCA/DipIFR)	420	560	710	930	1240	1630	+288
Auditorlik tashkilotlarida MHXS bo'yicha malaka egalarining ulushi (%)	18	22	27	33	41	49	+172
Moliyaviy hisobotlarning shaffoflik indeksi (Moliya vazirligi bahosi, foiz)	46	52	60	67	74	82	+36
Chet el investitsiyalari hajmi (mlrd. AQSh dollari)	9,7	10,4	11,2	12,5	13,6	14,8	+52

Bu holat MHXSni amaliyotga joriy etish uchun zarur bo'lgan kadrlar salohiyati kengayganini ko'rsatadi. Auditorlik tashkilotlarida MHXS bo'yicha malakaga ega mutaxassislar ulushi 2019-yildagi 18 foizdan 2024-yilda 49 foizga yetdi. Shu bilan birga, Moliyaviy hisobotlarning shaffoflik indeksi

46 foizdan 82 foizgacha oshdi. Ushbu natijalar MHXSning joriy etilishi moliyaviy axborot sifatini yaxshilashga xizmat qilganini ko'rsatdi. Chet el investitsiyalari hajmi ham MHXSni joriy etish jarayoni bilan birga o'sib bordi va 2019-yildagi 9,7 mlrd. AQSh dollaridan 2024-yilda 14,8 mlrd. AQSh dollariga yetdi.

2-jadval

IFRS standartlarini qo'llashning iqtisodiy samaradorligi [7]

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Xalqaro investitsiyalar (mln. AQSh dollar)	1,200	1,450	1850	2,400	3,100
Listing qilingan korxonalar	5	8	15	28	42
Kredit reytingi yaxshilangan korxonalar	12	25	48	85	135
Kapital qiymati kamaygan korxonalar (foizda)	2.5	4.2	7.8	12.5	18.7

Jadval ma'lumotlari MHXSni qo'llash xalqaro investitsiyalar hajmining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi. 2020-yilda 1,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan xalqaro investitsiyalar hajmi 2024-yilda 3,1 mlrd AQSh dollariga yetdi. Listing qilingan korxonalar soni

ham tahlil davrida sezilarli darajada oshdi. 2020-yilda 5 ta korxona listing qilingan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 42 taga yetdi. Bu natija MHXSga mos hisobotlar kapital bozorlarida ishtirokni kengaytirganini ko'rsatadi.

Kredit reytingi yaxshilangan korxonalar soni 2020-yildagi 12 tadan 2024-yilda 135 taga yetdi. Bu holat moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va taqqoslanish imkoniyati oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kapital qiymati kamaygan korxonalar ulushi 2,5 foizdan 18,7 foizgacha oshdi. Ushbu natija MHXSga o'tish jarayonida aktivlar va majburiyatlarning qayta baholanishi bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy tuzilma o'zgarishlarini aks ettiradi.

Tahlil natijalari MHXSni joriy etish O'zbekistonda moliyaviy hisobotlar sifati, shaffoflik darajasi va institutsional salohiyatning oshishiga xizmat qilganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ushbu jarayon xalqaro investitsiyalar oqimining ko'payishi, korxonalarning kapital bozorlaridagi faolligi va kredit reytinglarining yaxshilanishi bilan birga kechdi. Umuman olganda, MHXSni joriy etish jarayoni dastlab institutsional va kadrlar bazasining shakllanishi bilan boshlangan bo'lsa, keyingi bosqichda uning iqtisodiy samaradorligi investitsion va moliyaviy ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ldi. Ushbu natijalar tadqiqotning muhokama bo'limida batafsil tahlil qilinadi.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot O'zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etish jarayoni nafaqat institutsional islohot sifatida, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi muhim omil ekanini ko'rsatdi. 2019–2024-yillar davomida MHXS asosida

hisobot taqdim etuvchi korxonalar soni, malakali buxgalterlar va auditorlar ulushining oshishi moliyaviy axborot sifatining yaxshilanishiga xizmat qilgan. Ushbu jarayon moliyaviy shaffoflik darajasining oshishi bilan birga kechib, xalqaro investorlar uchun yanada ishonchli va tushunarli muhit shakllanishiga zamin yaratdi.

Tahlil natijalari MHXSni joriy etish iqtisodiy natijalar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Xalqaro investitsiyalar hajmining ortishi, listing qilingan korxonalar sonining ko'payishi hamda kredit reytingi yaxshilangan korxonalar ulushining kengayishi MHXSning kapital bozorlariga integratsiyani kuchaytirganini tasdiqladi. Shu bilan birga, ayrim korxonalarda kapital qiymatining kamayishi MHXSga o'tish jarayonida moliyaviy ko'rsatkichlarning qayta baholanishi bilan izohlanadi va bu holat qisqa muddatli moslashuv xarakteriga ega ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot MHXSni joriy etish O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy bozorlar samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynayotganini asoslab berdi hamda mamlakat miqyosida olib borilayotgan moliyaviy islohotlarning amaliy natijalarini yoritdi. Kelgusida tadqiqotlarni MHXSning alohida tarmoqlar va kichik hamda o'rta biznes subyektlari faoliyatiga ta'sirini chuqurroq o'rganish yo'nalishida kengaytirish ushbu sohadagi ilmiy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sohibov, A. D., & Xursandov, K. M. (2025). Xalqaro buxgalteriya standartlarini joriy etishning dolzarbligi: IFRS (MSFO) ga o'tishning foydalari va qiyinchiliklari. *Tadqiqotlar*, 69(1), 67–77. <https://journalss.org/index.php/tad/article/view/304/262>
2. Botirov, F. Sh. (2024). O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga o'tish bosqichlari va uning joriy holati ("Chorvoq turistik-rekreatsioon zonasi Direksiyasi" DUK misolida). *World Scientific Research Journal*. <https://journalss.org/index.php/wsri/article>
3. Dobilova, N. A. (2025). O'zbekiston sharoitida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida to'liq joriy etishning muammolari va yechimlari. *International Journal of Scientific Researchers*, 14(1). <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR>

4. Maxmasobirova, N.U., & Saydaliyev, J.N. (2025). O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish masalalari. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 5(6), 391–399. <https://www.oriens.uz/media/journalarticles/50>
5. Yürekli, E. (2024). IFRS adoption and economic consequences. *Pamukkale University Journal of Business Research (PIAR)*. <https://dergipark.org.tr/tr/pub/piar/issue/88287/1540597>
6. O'zbekiston sharoitida moliyaviy hisobning xalqaro standartlarini xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida to'liq joriy etishning muammolari va yechimlari <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/17500/21434>
7. Xalqaro bugalteriya standartlarini joriy etishining dolzarbligi: IFRS (MSFO)ga o'tishining foydalari va qiyinchiliklari. <https://journalss.org/index.php/tad/article/view/304/262>